



**New Day in Medicine**  
**Новый День в Медицине**

**NDM**



# TIBBIYOTDA YANGI KUN

Ilmiy referativ, marifiy-ma'naviy jurnal



**AVICENNA-MED.UZ**



ISSN 2181-712X.  
EiSSN 2181-2187

**7 (81) 2025**

**Сопредседатели редакционной  
коллегии:**

**Ш. Ж. ТЕШАЕВ,  
А. Ш. РЕВИШВИЛИ**

Ред. коллегия:  
М.И. АБДУЛЛАЕВ  
А.А. АБДУМАЖИДОВ  
Р.Б. АБДУЛЛАЕВ  
Л.М. АБДУЛЛАЕВА  
А.Ш. АБДУМАЖИДОВ  
М.А. АБДУЛЛАЕВА  
Х.А. АБДУМАДЖИДОВ  
Б.З. АБДУСАМАТОВ  
М.М. АКБАРОВ  
Х.А. АКИЛОВ  
М.М. АЛИЕВ  
С.Ж. АМИНОВ  
Ш.Э. АМОНОВ  
Ш.М. АХМЕДОВ  
Ю.М. АХМЕДОВ  
С.М. АХМЕДОВА  
Т.А. АСКАРОВ  
М.А. АРТИКОВА  
Ж.Б. БЕКНАЗАРОВ (главный редактор)  
Е.А. БЕРДИЕВ  
Б.Т. БУЗРУКОВ  
Р.К. ДАДАБАЕВА  
М.Н. ДАМИНОВА  
К.А. ДЕХКОНОВ  
Э.С. ДЖУМАБАЕВ  
А.А. ДЖАЛИЛОВ  
Н.Н. ЗОЛотова  
А.Ш. ИНОЯТОВ  
С. ИНДАМИНОВ  
А.И. ИСКАНДАРОВ  
А.С. ИЛЬЯСОВ  
Э.Э. КОБИЛОВ  
А.М. МАННАНОВ  
Д.М. МУСАЕВА  
Т.С. МУСАЕВ  
М.Р. МИРЗОЕВА  
Ф.Г. НАЗИРОВ  
Н.А. НУРАЛИЕВА  
Ф.С. ОРИПОВ  
Б.Т. РАХИМОВ  
Х.А. РАСУЛОВ  
Ш.И. РУЗИЕВ  
С.А. РУЗИБОВЕВ  
С.А. ГАФФОРОВ  
С.Т. ШАТМАНОВ (Кыргызстан)  
Ж.Б. САТТАРОВ  
Б.Б. САФОВЕВ (отв. редактор)  
И.А. САТИВАЛДИЕВА  
Ш.Т. САЛИМОВ  
Д.И. ТУКСАНОВА  
М.М. ТАДЖИЕВ  
А.Ж. ХАМРАЕВ  
Б.Б. ХАСАНОВ  
Д.А. ХАСАНОВА  
Б.З. ХАМДАМОВ  
А.М. ШАМСИЕВ  
А.К. ШАДМАНОВ  
Н.Ж. ЭРМАТОВ  
Б.Б. ЕРГАШЕВ  
Н.Ш. ЕРГАШЕВ  
И.Р. ЮЛДАШЕВ  
Д.Х. ЮЛДАШЕВА  
А.С. ЮСУПОВ  
Ш.Ш. ЯРИКУЛОВ  
М.Ш. ХАКИМОВ  
Д.О. ИВАНОВ (Россия)  
К.А. ЕГЕЗАРЯН (Россия)  
DONG JINCHENG (Китай)  
КУЗАКОВ В.Е. (Россия)  
Я. МЕЙЕРНИК (Словакия)  
В.А. МИТИШ (Россия)  
В.И. ПРИМАКОВ (Беларусь)  
О.В. ПЕШИКОВ (Россия)  
А.А. ПОТАПОВ (Россия)  
А.А. ТЕПЛОВ (Россия)  
Т.Ш. ШАРМАНОВ (Казахстан)  
А.А. ЩЕГОЛОВ (Россия)  
С.Н. ГУСЕЙНОВА (Азербайджан)  
Prof. Dr. KURBANHAN MUSLUMOV (Azerbaijan)  
Prof. Dr. DENIZ UYAK (Germany)

**ТИББИЁТДА ЯНГИ КУН  
НОВЫЙ ДЕНЬ В МЕДИЦИНЕ  
NEW DAY IN MEDICINE**

*Илмий-рефератив, маънавий-маърифий журнал  
Научно-реферативный,  
духовно-просветительский журнал*

**УЧРЕДИТЕЛИ:**

**БУХАРСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ  
МЕДИЦИНСКИЙ ИНСТИТУТ  
ООО «ТИББИЁТДА ЯНГИ КУН»**

Национальный медицинский  
исследовательский центр хирургии имени  
А.В. Вишневского является генеральным  
научно-практическим  
консультантом редакции

Журнал был включен в список журнальных  
изданий, рецензируемых Высшей  
Аттестационной Комиссией  
Республики Узбекистан  
(Протокол № 201/03 от 30.12.2013 г.)

**РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ:**

М.М. АБДУРАХМАНОВ (Бухара)  
Г.Ж. ЖАРЫЛКАСЫНОВА (Бухара)  
А.Ш. ИНОЯТОВ (Ташкент)  
Г.А. ИХТИЁРОВА (Бухара)  
Ш.И. КАРИМОВ (Ташкент)  
У.К. КАЮМОВ (Ташкент)  
Ш.И. НАВРУЗОВА (Бухара)  
А.А. НОСИРОВ (Ташкент)  
А.Р. ОБЛОКУЛОВ (Бухара)  
Б.Т. ОДИЛОВА (Ташкент)  
Ш.Т. УРАКОВ (Бухара)

**7 (81)**

**2025**

*июль*

www.bsmi.uz  
https://newdaymedicine.com E:  
ndmuz@mail.ru  
Тел: +99890 8061882

Received: 20.06.2025, Accepted: 06.07.2025, Published: 10.07.2025

УДК 616.25-002.5-08.

**«GERIATRIK TUBERKULYOZNING FARG'ONA VODIYSI SHAROITIDA  
EPIDEMIOLOGO-KLINIK VA PROFILAKTIK XUSUSIYATLARI» 14.00.43 –  
PROFILAKTIK TIBBIYOT**

Maxsumova Dinora Kamolovna <https://orcid.org/0009-0003-5261-6544>

Andijon davlat tibbiyot instituti O'zbekiston, Andijon, Otabekov 1  
Tel: (0-374) 223-94-60. E.mail: info@adti

✓ *Rezyume*

*Maqolada Andijon shahrida 2020–2024 yillar davomida geriatriya yoshidagi bemorlarda o'tkazilgan tuberkulyozning epidemiologik-klinik xususiyatlari va profilaktik choralari tahlil qilingan. O'pka va o'pka tashqarisi shakllaridagi 1000 nafar qariyalar retrospektiv tahlil qilingan. Kasallik klinik kechishi, qo'shimcha kasalliklarning ta'siri va hududda profilaktikani takomillashtirish zarurati aniqlangan*

*Kalit so'zlar: Gerontologik tuberkulyoz, Epidemiologiya, Klinik kechish, Xatar omillari, Ekstrapulmonal tuberkulyoz, Farg'ona vodiysi*

**«ЭПИДЕМИОЛОГИЧЕСКИЕ И КЛИНИКО-ПРОФИЛАКТИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ  
ГЕРИАТРИЧЕСКОГО ТУБЕРКУЛЁЗА В УСЛОВИЯХ ФЕРГАНСКОЙ ДОЛИНЫ»  
14.00.43 – ПРОФИЛАКТИЧЕСКАЯ МЕДИЦИНА**

Махсумова Динора Камоловна

Андижанский государственный медицинский институт Узбекистон, Андижон, Ул.  
Атабеков 1 Тел:(0-374)223-94-60. E-mail: info@adti

✓ *Резюме*

*В статье представлен анализ эпидемиолого-клинических особенностей и профилактических мероприятий при гериатрическом туберкулёзе в городе Андижан за период 2020–2024 гг. Проведен ретроспективный анализ 1000 пациентов пожилого возраста с легочной и внелегочной формами заболевания. Выявлены особенности клинического течения, влияние сопутствующей патологии и необходимость совершенствования профилактики в регионе*

*Ключевые слова: Геронтологический туберкулёз, Эпидемиология, Клиническое течение, Факторы риска, Внелегочный туберкулёз, Ферганская долина*

**"EPIDEMIOLOGICAL AND CLINICAL-PREVENTIVE FEATURES OF GERIATRIC  
TUBERCULOSIS IN THE FERGANA VALLEY" 14.00.43 - PREVENTIVE MEDICINE**

Makhsumova Dinora Kamolovna

Andijan State Medical Institute, 170100, Uzbekistan, Andijan, Atabekova st.1  
Тел: (0-374)223-94-60. E-mail: info@adti

✓ *Resume*

*This article presents an analysis of the epidemiological and clinical characteristics, as well as preventive measures, of geriatric tuberculosis in the city of Andijan during 2020–2024. A retrospective study of 1000 elderly patients with pulmonary and extrapulmonary forms of tuberculosis was conducted. Clinical course features, the impact of comorbidities, and the need to improve prevention in the region were identified*

*Keywords Geriatric tuberculosis, Epidemiology, Clinical course, Risk factors, Extrapulmonary tuberculosis, Fergana Valley*

## Dolzarbligi

**B**ugungi kunda aholining qarish tendentsiyasi jahon bo'ylab kuzatilayotgan demografik jarayonlar qatorida alohida o'rin egallaydi. Jumladan, O'zbekistonda ham gerontologik aholi ulushi yil sayin oshib bormoqda. Bu esa sog'liqni saqlash tizimi oldiga qator murakkab vazifalarni qo'ymoqda. Ayniqsa, yuqumli kasalliklar, jumladan tuberkulyozning keksa yoshli aholi orasidagi klinik kechishi, tarqalishi va profilaktikasi borasida yangi yondashuvlarni talab etmoqda.

Tibbiy statistika ma'lumotlariga ko'ra, keksa va qariyalar orasida tuberkulyozga chalinish holatlari, ularda kasallikning og'ir kechishi, yuqori o'lim ko'rsatkichlari va nogironlik holatlari ortayotgani kuzatilmoqda. Bu esa immunitet tizimining yoshga bog'liq zaiflashishi, hamroh kasalliklarning ko'pligi va immunosuppressiv terapiya bilan bog'liq muammolar tufayli yuzaga keladi. Shu nuqtai nazardan, gerontologik tuberkulyoz masalasi nafaqat klinik, balki epidemiologik va profilaktik nuqtai nazardan ham alohida ahamiyat kasb etadi.

**Tadqiqotning maqsadi:** geriatric tuberkulyozni Farg'ona vodiysi sharoitida epidemiologo-klinik va profilaktik xususiyatlarini o'rganish.

**Tadqiqotning vazifalari:** Farg'ona vodiysi sharoitida geriatric tuberkulyozning epidemiologik tavsiflarini o'rganish. Geriatric tuberkulyozning xatar omillari va ularning hududiy shakllanishini hamda klinik kechish xususiyatlarini tahlil qilish.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi:** ilk bor Farg'ona vodiysida gerontologik aholi orasida o'pka va ekstrapul'monal tuberkulyozning aniqlanish chastotasi ko'p yillik monitoring asosida baholanadi. Vodiy sharoitida geriatric tuberkulyozning asosiy xatar omillari aniqlanadi. Geronto-geriatric yoshda tuberkulyozning zamonaviy klinik kechishi xususiyatlari belgilanadi.

**Adabiyotlarga sharh:** geriatric tuberkulyoz masalasi jahon tibbiyotida dolzarb mavzulardan biri sifatida ko'riladi. JSST ma'lumotlariga ko'ra, keksa yoshli bemorlar orasida tuberkulyozga chalinish xavfi yuqori bo'lib, ularda kasallik ko'pincha kech aniqlanadi va og'ir kechadi. Ko'plab tadqiqotlar shundan dalolat beradiki, gerontologik guruhda tuberkulyozning klinik manzarasi ko'pincha atipik shaklda kechadi, bu esa o'z vaqtida tashhis qo'yish va samarali davolashni qiyinlashtiradi [1,2].

Xalqaro manbalarda (masalan, Cilloniz et al., 2020; Lee et al., 2019) qayd etilganidek, keksa yoshda tuberkulyozning yuqishiga ta'sir etuvchi omillar sifatida immun tizimining yoshga bog'liq pasayishi, qo'shimcha kasalliklar (qan bosimi, qandli diabet, BPX, osteoporoz va boshqalar) va ijtimoiy omillar (yolg'izlik, muhtojlik, davolanishga kech murojaat qilish) alohida o'rin tutadi.

O'zbekiston sharoitida gerontologiya va ftiziatriyaning kesishuvidagi tadqiqotlar hali yetarlicha olib borilmagan. Ammo, so'nggi yillarda mahalliy olimlar tomonidan (Jo'raev B., Rahimov N., Saidova M. va boshqalar) yurtimizda tuberkulyozning epidemiologiyasi, tashhis usullari va davolash taktikalari bo'yicha ilmiy ishlar amalga oshirilmoqda. Shunga qaramasdan, Farg'ona vodiysida geriatric tuberkulyozning epidemiologik va klinik xususiyatlari, hududiy xatar omillari va profilaktik yondashuvlari xususida maqsadli va chuqur tahlil qilingan tadqiqotlar mavjud emas. Mazkur maqola aynan shu bo'shliqni to'ldirishga qaratilgan.

## Material va usullar

Ushbu tadqiqot 2020–2024 yillar davomida Andijon viloyati Ftiziatriya va pul'monologiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazida davolangan gerontologik yoshdagi bemorlar o'rtasida amalga oshirildi. Tadqiqot ob'ekti — 60 yosh va undan katta bo'lgan tuberkulyoz bilan kasallangan bemorlar. Tadqiqot predmeti — geriatric tuberkulyozning epidemiologik tavsiflari, klinik kechishi va xatar omillari.

Epidemiologik tahlil — bemorlarning yosh-jinsi, yillar bo'yicha taqsimoti, kasallikning aniqlanish vaqti va shakli tahlil qilindi. Klinik tahlil — tuberkulyozning o'pka va ekstrapul'monal shakllari, aniqlanish usuli, davolash muvaffaqiyatliliigi, hamroh kasalliklar o'rganildi. Statistik tahlil — Microsoft Excel va SPSS dasturlaridan foydalanildi. Kvarkat, t-kriteriyalari va korrelyatsion tahlillar qo'llanilib,  $r < 0.05$  darajada statistik ahamiyat baholandi.

Inklyuziya mezonlari:

- 60 yosh va undan katta yoshdagi bemorlar;
- Tasdiqlangan tuberkulyoz tashhisi;
- 2020–2024 yillarda Andijon viloyatida davolangan bo'lishi.
- Eksklyuziya mezonlari:

- Noto'liq tibbiy ma'lumotga ega bemorlar;
- Boshqa viloyatdan kelib davolangan bemorlar.

### Natija va tahlillar

2020–2024 yillar davomida Andijon viloyati Ftiziatriya va pul`monologiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazida jami 412 nafar gerontologik yoshdagi (60 yosh va undan yuqori) tuberkulyoz bemori qayd etildi. Bemorlarning 58,5% ni erkaklar, 41,5% ni ayollar tashkil etdi. Eng ko'p holatlar 2022 yilda qayd etilgan (barcha holatlarning taxminan 26%).

Tashhis shakllari bo'yicha taqsimot:

O'pka tuberkulyozi – 72%

Ekstrapulmonal shakllar – 28% (jumladan, limfa tugunlari, suyak bo'g'imlari, jigar, buyrak va boshqalar)


Aniqlash usuli:

Radiologik tashhis – 54%

Bakteriologik (musbat posev) – 31%

Klinik-ma'lumotlar asosida – 15%

### Гериатрик беморларда туберкулёз шакллари (2020–2024)



Klinik kechish xususiyatlari: ko'p holatlarda (68%) kasallik kech tashhis qilingan. 63% bemorda bir yoki bir necha hamroh kasalliklar kuzatilgan, jumladan: qandli diabet (25%), gipertoniya (31%), BPX, XOBL va osteoporoz. Yashash sharoiti va ijtimoiy jihatdan qiyin ahvoldagi bemorlar soni yuqori (30% atrofida).

Muhokama: Ushbu natijalar gerontologik tuberkulyozning vodiy sharoitida jiddiy muammo sifatida saqlanib qolayotganini, bemorlarda klinik tasvir ko'pincha kech shakllanishini va tashhis qo'yishda kechikish holatlari mavjudligini ko'rsatadi. Ekstrapul`monal shakllar sonining yuqori bo'lishi, ayniqsa, geronto-geriatrik yoshda, tashhisni murakkablashtiruvchi omil sifatida namoyon bo'ladi.

### Xulosa

Andijon viloyatida 2020–2024 yillar davomida gerontologik yoshdagi tuberkulyoz bilan kasallanish holatlari barqaror yuqori darajada saqlanib qolmoqda va kasallikning kech niqlanishi tendentsiyasi mavjud. Tadqiqot natijalariga ko'ra, gerontologik tuberkulyozda:

- Ko'p hollarda o'pka shakli ustunlik qiladi (72%);
- Ekstrapulmonal shakllar ham salmoqli o'ringa ega (28%) va ular tashhishlashda qiyinchiliklar tug'diradi;
- Kasallikni kech aniqlash holati yuqori (68%) bo'lib, sog'liqni saqlash tizimida yoshga oid yondashuvning yetarli emasligini ko'rsatadi.

Hamroh kasalliklar (diabet, gipertoniya va h.k.) gerontologik tuberkulyozning og'ir kechishi va davolashdagi qiyinchiliklarni kuchaytiradi. Bunday holatlarda kompleks yondashuv talab etiladi.

Gerontologik aholi orasida tuberkulyoz skriningini tashkil etish, xususan yuqori xatar guruhlarini (yagona keksalar, diabetiklar, XOBLLi bemorlar) qamrab olish zarur. Oilaviy shifokorlar va umumiy amaliyot shifokorlari uchun gerontologiya va ftiziatriya kesishuvida malaka oshirish kurslarini joriy etish lozim.

Tibbiy-profilaktik ishlar doirasida gerontologik bemorlar uchun mo'ljallangan maxsus ma'lumotnomalar va vizual targ'ibot materiallarini ishlab chiqish kerak.

Ekstrapul'monal shakllarni tezkor aniqlash uchun laborator va instrumental bazani kuchaytirish (UZI, KT, MRT va PTSR usullari) tavsiya etiladi.

#### ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Cillóniz C., Torres A. (2020). Management of tuberculosis in the elderly. *Clinical Microbiology and Infection*, 26(8), 1034–1040. <https://doi.org/10.1016/j.cmi.2020.01.021>
2. Lee J.H., Han D.H., Song J.W., et al. (2019). Clinical characteristics of pulmonary tuberculosis in elderly patients. *Tuberculosis and Respiratory Diseases*, 82(4), 326–332. <https://doi.org/10.4046/trd.2019.0001>
3. World Health Organization (WHO). (2023). *Global Tuberculosis Report 2023*. Geneva: WHO. Retrieved from <https://www.who.int/publications/i/item/9789240078035>
4. Жўраев Б.Х., Раҳимов Н.А., Саидова М.Ш. (2022). Ўзбекистонда туберкулёз эпидемиологиясининг замонавий ҳолати ва ривожланиш тенденциялари. *Тиббиёт ва амалиёт журнали*, №2, 45–49.
5. Салиева Г.Т., Каримов А.Н. (2021). Қариялар орасида туберкулёзнинг клиник ва эпидемиологик хусусиятлари. *Ўзбекистонда тиббиёт*, №3, 28–31.
6. Uzbekistan Ministry of Health (2023). *Tuberkulyoz bo'yicha statistik axborot (2020–2022)*. Toshkent: Respublika Tibbiyot Axborot Markazi.
7. Маҳмудов И.А. (2020). Гериатрияда туберкулёз касаллигининг клиник кечиши ва ташхис усуллари. *Самарқанд тиббиёт институти хабарлари*, №4, 50–55.

Поступила 20.06.2025